

1. Quyidagi variantlar orasidan **to'g'ri** javobni aniqlang.

1) Jismoniy shaxslar deganda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi.

2) Alohida mol mulkga ega bo'lgan o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la olmaydigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

3) Tijorat tashkilotlariga maktablar, shifoxonalar, xayriya jamg'armalarini kiritish mumkin.

4) Notijorat tashkilotlari foyda olishni maqsad qilib olmagan muassasa yoki tashkilotlar bo'lishi mumkin  
A) 1, 2                      B) 2, 4                      C) 1, 3                      3, 4

2. Quyida berilgan konstitutsiya moddalarini **to'g'ri** muvofiqlashtiring.

- 1) 9-modda;                      2) 5-modda;  
3) 7-modda;                      4) 12-modda;  
a) Davlat ramzlari davlat himoyasida;  
b) Xalq davlat homiyatining birdan bir manbaidir;  
c) O'zbekiston Respublikasida referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi;  
d) Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas;  
A) 1-c, 2-b, 3-d, 4-b  
B) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d  
C) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b  
D) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d

3. Davlat boshqaruvi va diniy hokimiyat monarx qo'lida to'planishi qanday monarxiya turiga kirishini toping.

- A) Mutlaq monarxiya  
B) Cheklangan monarxiya  
C) Teokratik monarxiya  
D) Noan'anviy monarxiya

4. Quyidagilarni o'zaro muvoqlashtiring.

- I. Aralash respublika; II. Parlamentar respublika  
1) Germaniya; 2) Janubiy Korea; 3) Gretsiya;  
4) Fransiya;  
A) I-1, 2 II-3, 4;                      B) I-1, 3 II-2, 4;  
C) I-1, 4 II-2, 3;                      D) I-2, 4 II-1, 3

5. Quyidagi fikrlardan qaysi biri **Abu Ali ibn Sinoga** tegishli.

- A) Agar ta'lim tarbiya va jazo to'g'risida qonun-qoida bo'lmasa, mamlakat ishlari buziladi.  
B) G'azab vaqtida o'zgina sabr minglab afsuslarni oldini oladi.  
C) Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa  
D) Har bir inson qadr qimmatini o'z ishini qoyil qilib bajarishidir.

6. Necha yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga **o'ttiz olti** soatdan ish kuni belgilanadi ?

- A) 14 yoshdan 15 yoshgacha  
B) 14 yoshdan 16 yoshgacha  
C) 15 yoshdan 16 yoshgacha  
D) 16 yoshdan 18 yoshgacha

7. Huquq normasini tarkibiga kiruvchi **"gipoteza"** haqida berilgan **to'g'ri** ma'lumotni muvofiqlashtiring?

- 1) u harakatga kelishi uchun zarur bo'lgan shart sharoitlar bayon etiladi; 2) lotin tilidan olingan bo'lib, joylashuv degan ma'noni anglatadi;  
3) yunoncha so'z bo'lib, faraz qilish degan ma'noni anglatadi; 4) unda xulq-atvor qoidalarining o'zi ifodalanib, huquq subyektlarining huquq va majuriyatlari belgilab beriladi; 5) unda huquq normalari bajarilmaganligi uchun davlat tomonidan qo'llaniladigan majburlov chorasi bayon etiladi;  
6) u lotin tilidan olingan bo'lib, majburiy chora degan ma'noni anglatadi.

- A) 1, 3                      B) 2, 4                      B) 5, 6                      C) 1, 2

8. Xalqaro huquqning fan sifatida rivojlanishiga katta hissa qo'shgan huquqshunosning qaysi millatga mansub edi.

- A) Ingliz                      B) Fransuz  
C) Golland                      D) Nemis

9. O'zbekiston Konstitutsiyasi necha qismdan iborat?

- A) 3 qism: 6 bo'lim, 27 bob, 155 modda
- B) 5 qism : muqaddima, 6 bo'lim, 27 bob, 155 modda, qonunosti hujjatlar
- C) 2 qism : 6 bo'lim, 155 modda
- D) 4 qism : muqaddima, 6 bo'lim, 27 bob, 155 modda

10. Quyidagilardan to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

1) Fuqarolarning muomila layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudaga keladi vafot etishi bilan tugaydi.

2) Oila kodeksiga binoan ayrim hollarda 18 yoshga to'lmay turib nikohdan o'tishga ruhsat beriladi.

3) Nikoh tuzish natijasida ega bo'lgan muomila layoqati o'n sakkiz yoshga to'lmasdan turib nikoh bekor bo'lgan taqdirda ham to'la saqlanib qoladi.

4) Fuqarolarning huquq layoqati yosh va ruhiy salomatlik bilan bog'liqdir.

- A) 1, 4
- B) 2, 3
- C) 2, 4
- D) 1, 3

11. Quyidagilardan qaysi birida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining

**18 – moddasida** nazarda tutilgan band berilgan?

A) Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat organlari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

B) O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo'lishi mumkin emas

C) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir

D) O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin.

12. Quyidagi qaysi davlatda saylovga birinchi marta uzrli sababsiz kelmaganlik uchun jarima solinadi. Agar bunday qoidabuzarlik takroriy sodir etilsa, jarima miqdori oshiriladi.

- A) Gretsiya
- B) Belgiya
- C) Turkiya
- D) Islandiya

13. To'g'ri hukmlarni **aniqlang**.

I.

I. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining ichki tartib qonun-qoidalari qo'llaniladi;

II. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyat tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi;

III. O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi;

IV. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas

A) I – to'g'ri; II – noto'g'ri; III – tog'ri; IV – to'g'ri

B) I – noto'g'ri; II – to'g'ri; III – noto'g'ri; IV – to'g'ri

C) I – noto'g'ri; II – noto'g'ri; III – to'g'ri; IV – to'g'ri

D) I – noto'g'ri; II – to'g'ri; III – to'g'ri; IV – noto'g'ri

14. Bugungi kunda islom huquqshunosligi bo'yicha nufuzli huquqiy manba – asosiy qo'llanma sifatida foydalanib kelinayotgan asarni toping.

- A) Kitob al-Hidoya
- B) Fozil odamlar shahri
- C) Majolis un-nafois
- D) Qutadg'u bilig

15. Agar ta'lim –tarbiya va jazo to'g'risida qonun qoida bo'lmasa, mamlakat ishlari buziladi.

**Ushbu so'zlar muallifini aniqlang.**

- A) Husayn Voiz Koshifiy
- B) Ulpian
- C) Gyote
- D) Xusrav Dehlaviy

**16.** Quyida berilganlar orasidan huquqbuzarlikning **ayblilik** belgisiga oid tegishli ma'lumotni to'g'risini aniqlang.

- A) Ijtimoiy hayot ishtirokchilar bo'lgan turli shaxslar, jamiyat, davlatning qonuniy huquq va manfaatlariga huquqbuzarlik oqibatida zarar yetkazish tushuniladi
- B) Ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etishni anglatadi
- C) Huquq normalarida belgilab qo'ygan majburiyat talablarini buzish
- D) Huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortishini anglatadi.

**17.** Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli hususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday huquqbuzarlik ... sodir etilgan deb topiladi.

- A) To'g'ri qasddan
- B) Egri qasddan
- C) O'z o'ziga ishonishi oqibatida
- D) Beparvolik oqibatida


**18.** Quyidagi qaysi jinoiy jazo turida harbiy xizmatni shartnoma bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko'rsatigan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilish ifodalanadi.

- A) Hizmat bo'yicha cheklash
- B) Intizomiy qismga joylashtirish
- C) Muayyan huquqdan mahrum qilish
- D) Majburiy jamoat ishlari

**19.** Quyidagi variantlar orasidan intizomiy jazo turlari **noto'g'ri** berilgan javobni aniqlang.

- A) Jarima
- B) Hayfsan
- C) Ogohlantirish
- D) Mehnat shartnomasini bekor qilish

**20.** Quyida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilib Eyler-Venn diagrammasiga **mos keladigan javoblarni** aniqlang.



- a) lotincha so'z bo'lib, oddiy, yagona degan ma'noni anglatadi
- b) davlatlarning tuzilish shakli
- c) bir nechta davlatlarning birlashuvidan hosil bo'lgan murakkab, ittifoqdosh davlat
- d) qat'iy belgilangan ma'muriy-hududiy tuzilishiga egaligi
- e) ularning subyektlari shtat, o'lka, respublika, amirliklar deb atalishi mumkin.

- A) I-a, e; II-d, c; III-b
- B) I-a, c; II-b, e; III-d
- C) I-a, d; II-c, e; III-b
- D) I-d, a; II-b, e; III-d

**21.** O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarining rozilgisiz quyidagi qanday huquqlarni mustaqil ravishda amalga oshirishlari mumkin.

- 1)** o'z ish haqi, stipendiya va boshqa daromadlarni tasarruf etish;
- 2)** bepul foyda ko'rishga qaratilgan bitimlarni tuzish;
- 3)** qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo'yish;
- 4)** mayda maishiy bitimlar (oziq-ovqat mahsulotlarini harid qilish);

- A) 1, 2
- B) 2, 3
- C) 1, 3
- D) 2, 4

**22.** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 17-moddasida jismoniy shaxslarning javobgarligi belgilangan bo'lib, jinoyat sodir etgunga qadar ... yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladi

- A) 16 yosh                      B) 14 yosh  
C) 18 yosh                      D) 20 yosh

**23.** Nuqtalar o'rniga **to'g'ri** javobni aniqlang.  
*O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan O'zbekiston Respublikasi ... va Prezidenti ish olib borishi mumkin.*

- A) Vazirlar mahkamasi  
B) Oliy majlis  
C) Sud hokimliklari  
D) Hokimliklar

**24.** O'n olti yoshgacha bo'lgan guvohlar va jabrlanuvchilar ko'rsatma berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatma berganlik uchun javobgarlikka tortish ogohlantiriladi.

- A) To'g'ri                      B) Noto'g'ri**

**25.** Quyida berilganlardan **to'g'ri** hukmlarni aniqlang.

- 1)** Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini, ayblanuvchini so'roq qilishga ketgan umumiy vaqt, kun davomida dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olmaganda, sakkiz soatdan oshmaslik kerak.  
**2)** Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan bir vaqtning o'zida ehtiyot choralardan bittan ortig'i qo'llanishiga yo'l qo'yiladi.  
**3)** Voyaga yetmagan ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot choralari qo'llanilgani to'g'risida uning qonuniy vakiliga, agar bunday vakil bo'lmasa, boshqa qarindoshlariga xabar qilinadi.  
**4)** Voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so'roq qilishdan boshlab ishdahimoyachi ishtirok etishi mumkin.  
A) 1, 4                      B) 1, 3                      C) 2, 3                      D) 3, 4

*Ism-familiya* \_\_\_\_\_

*To'g'ri javoblar soni* \_\_\_\_\_

**Muallif: Umidjon Qo'chqarov**